

Husaynni yaxshi ko'rganni Alloh yaxshi ko'radi



11:03 / 29.01.2019 5938

Aziz bolajonim! Bobongiz, buvingiz, ota-onangiz yoki boshqa kimdir sizni erkalasa, mahkam quchoqlasa, sayr qildirsa, o'ynatsa, yuzlaringizdan o'psa, chimchilasa, bilingki, ularning qalbiga Alloh mana shunday mehr-muhabbat joylagan. Sizni ko'rganda ich-ichidan quvonchga, zavq-u shavqqa to'ladi.

Mehr ko'rsatish, rahimdillik qilish borasida Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomdan o'tadigan kishi yo'q. Keling, U zotning bolalarga bo'lgan e'tiborlari haqida yana bir misol ko'raylik.

Ya'lo ibn Murra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Nabiy sollallohu alayhi vasallam bilan yo'lga chiqdik. Taomga chaqirilgan edik. Qarasak, Husayn ko'chada o'ynab yuribdi. Nabiy sollallohu alayhi vasallam tezda odamlardan oldinga chiqib, bolaga qarab qo'llarini cho'zib, shoshib yurib ketdilar.

Bola hali u yoqqa, hali bu yoqqa qochardi. Kulishdi. Oxiri Nabiy sollallohu alayhi vasallam uni ushlab, ko'tarib oldilar. Bir qo'llarini jag'iga, bir qo'llarini boshiga qo'yib, siladilar, so'ng quchoqladilar. So'ngra:

«Husayn mendandir, men Husayndandirman. Kim Husaynni yaxshi ko'rsa, Alloh taolo uni yaxshi ko'radi. Husayn nabiralardan biridir», dedilar».

Ushbu hadisdan ham Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning nihoyatda bolajon, kichkinalarni

yaxshi ko'radigan zot bo'lganlari, nabiralarini qanday erkalashlari, quchoqlashlari, yaxshi ko'rishlari ko'z o'ngimizda namoyon bo'lib turibdi.

Shu bilan birga, imom Husayn roziyallohu anhuning fazilatlari qanchalik ulug' bo'lganini, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam u kishi haqlarida buyuk bir bashoratni aytganlarini, u kishini yaxshi ko'rgan odamni Alloh taolo yaxshi ko'rishi haq ekanini bilib olamiz. Demak, ushbu hadisga amal qilib, kichkinalarimizni erkalatib, o'ynatib, quchoqlab, o'pib, xursand qilib, ayni paytda imom Husayn roziyallohu anhuga bo'lgan muhabbatimizni farzandlarimizga ham singdirib borishimiz kerak ekan.

«Hadis va hayot» kitobidan